



PUL-KREDIT SIYOSATI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sharifova Iroda Erkin qizi

O'zMU Jizzax filiali Psixologiya fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 133.23-guruh talabasi

Sharifovairoda0327@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining mazmuni, asosiy yo'nalishlari va iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilingan. Xususan, inflyatsiya darajasini nazorat qilish, kreditlashni kengaytirish, valyuta barqarorligini saqlash va aholi omonatlarini jalb etish kabi omillar alohida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlillar orqali pul-kredit siyosatining real sektorga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari yoritilgan. Maqola yakunida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha istiqbolli takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, inflyatsiya, kreditlash, Markaziy bank, iqtisodiy barqarorlik, valuta kursi, omonatlar

Abstract: This article analyzes the essence, key directions, and economic impact of the monetary policy implemented in the Republic of Uzbekistan. Special attention is paid to controlling inflation, expanding crediting, maintaining currency stability, and attracting public deposits. Based on statistical data, the article evaluates both the positive and negative effects of monetary policy on the real sector. In conclusion, the paper provides insights into existing challenges and offers practical recommendations for the future development of Uzbekistan's monetary framework.

Keywords: monetary policy, inflation, crediting, Central Bank, economic stability, exchange rate, deposits



Bugungi kunda har bir davlat o'z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish, aholi farovonligini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi maqsadlar yo'lida turli iqtisodiy siyosat vositalaridan foydalanmoqda. Ular orasida pul-kredit siyosati alohida o'rin egallaydi. Bu siyosat markaziy bank orqali amalga oshiriladi va iqtisodiyotdagi pul massasi, kreditlash jarayoni, foiz stavkalari kabi ko'rsatkichlarni tartibga solish orqali iqtisodiy faollikka ta'sir o'tkazadi.

O'zbekiston ham mustaqillik yillaridan boshlab o'zining milliy pul-kredit siyosatini shakllantirdi. Dastlabki yillarda bu siyosat ko'plab murakkabliklar va cheklovlar bilan kechgan bo'lsa-da, keyinchalik bozor iqtisodiyoti talablariga mos islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, 2017 yildan keyingi davrda pul-kredit siyosatida yangi yondashuvlar joriy etilib, banklar faoliyati erkinlashdi, valyuta siyosati liberallashtirildi va foiz stavkalari bozor tamoyillariga yaqinlashtirildi. Mazkur maqolada pul-kredit siyosatining nazariy asoslari yoritilib, O'zbekiston tajribasi tahlil qilinadi hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Pul-kredit siyosati - bu davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u markaziy bank orqali amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi - iqtisodiyotda pul massasini, foiz stavkalarini, kreditlash hajmini boshqarish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Ya'ni bu siyosat yordamida inflyatsiyani jilovlash, milliy valyuta barqarorligini saqlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

Pul-kredit siyosati odatda ikki turga bo'linadi: ekspansion (kengaytiruvchi) va restriktiv (cheklovchi) siyosat. Ekspansion siyosat, odatda, iqtisodiy pasayish davrida qo'llanilib, markaziy bank tomonidan foiz stavkalari pasaytiriladi, kreditlar ko'paytiriladi va shu orqali iqtisodiy faollik rag'batlantiriladi. Aksincha, restriktiv siyosat inflyatsiyaning ortishini jilovlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu holatda foiz stavkalari oshiriladi, kreditlar hajmi cheklanadi va pul aylanishi sekinlashtiriladi.

Markaziy bank bu siyosatni amalga oshirishda bir necha asosiy vositalardan foydalanadi. Ularga quyidagilar kiradi:



- foiz stavkalari siyosati - asosiy foiz stavkasini belgilash orqali kreditlash va jamg'arma qilish faoliyatiga ta'sir o'tkaziladi;
- majburiy zaxira normasi - tijorat banklarining Markaziy bankda saqlashi lozim bo'lgan minimal mablag' miqdorini tartibga soladi;
- ochiq bozor operatsiyalari - davlat qimmatli qog'ozlari orqali pul massasini boshqarish imkonini beradi;
- valyuta siyosati - milliy valyuta kursini bevosita yoki bilvosita boshqarish orqali tashqi iqtisodiy muvozanatga ta'sir etiladi.

Pul-kredit siyosatining samarali yuritilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun asosiy tayanchlardan biridir. Shu bois, har bir davlat bu sohani puxta o'rganib, o'z iqtisodiy sharoitlariga moslab yondashishga harakat qiladi. O'zbekiston ham bu borada o'ziga xos yo'lni tanlab, bosqichma-bosqich ilg'or yondashuvlarni joriy etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, iqtisodiyotda tub o'zgarishlar zarurati yuzaga keldi. Dastlabki yillarda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni qiyin kechdi - inflyatsiya darajasi juda yuqori bo'lgan, kredit tizimi esa zaif va markazlashgan holatda edi. 1990-yillarda inflyatsiya darajasi 1000 foizdan oshgan holatlar ham qayd etilgan. Markaziy bankning asosiy vazifasi - iqtisodiy muvozanatni tiklash, pul massasini nazorat qilish va bank tizimini shakllantirish bo'ldi.

2000-yillarda nisbatan barqarorlikka erishildi. Masalan, 2000-yilda inflyatsiya darajasi 25 foiz bo'lgan bo'lsa, 2010-yillarga kelib bu ko'rsatkich 10-12 foiz atrofida ushlab turildi. Biroq, valyuta bozoridagi qat'iy nazorat, bir nechta rasmiy va norasmiy kurslarning mavjudligi pul-kredit siyosatini erkin amalga oshirishga imkon bermas edi.

2017-yil O'zbekiston pul-kredit siyosati tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Shu yili Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida iqtisodiy islohotlar jadallashdi. Eng muhim voqealardan biri - 2017-yil 5-sentabrda o'tkazilgan valyuta bozorini liberallashtirish edi. Bu orqali birinchi marta rasmiy va norasmiy kurslar birlashtirildi: o'sha kuni 1 AQSh dollari 4210 so'm etib belgilandi (ilgari norasmiy bozor kursi bundan ancha yuqori edi).



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini inflyatsion targeting modeliga o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. 2019-yilda bu modelni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ishlar boshlandi va asosiy maqsad sifatida 2023-yilga kelib inflyatsiyani 5 foizgacha tushirish belgilandi.

Quyidagi statistik raqamlar bu davrda erishilgan yutuqlarni yaqqol ko'rsatadi:

- 2017-yil oxirida inflyatsiya darajasi – 14,4%
- 2020-yilda – 11,1%
- 2023-yil yakunida – 8,8%
- 2024-yil prognozi – 7,5% atrofida (Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra)

Markaziy bank asosiy foiz stavkasi (pul-kredit siyosatining asosiy vositasi)ni ham iqtisodiy holatga moslab o'zgartirib bordi:

- 2018-yilda – 14%,
- 2020-yilda – 15%,
- 2022-yilda – 17%,
- 2024-yil boshida esa – 14% ga tushirildi.

Bu o'zgarishlar bank tizimida kreditlar hajmiga ham ta'sir qildi. Agar 2017-yilda iqtisodiyotdagi kreditlar hajmi 80 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 400 trillion so'mdan oshdi. Kreditlarning aksariyati sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirildi.

Umuman olganda, O'zbekiston pul-kredit siyosatida sekin-asta bozor mexanizmlariga asoslangan, ochiq va prognozga asoslangan yondashuvga o'tayotganini ko'rish mumkin. Bu esa iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, investorlar ishonchini oshirishga va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini amalga oshirishda xalqaro tajribaga asoslangan zamonaviy vositalardan foydalanmoqda. Bu vositalarning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlagan holda inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Asosiy vositalar quyidagilardan iborat:



Asosiy foiz stavkasi. Bu - Markaziy bankning eng muhim instrumentlaridan biri. U banklararo kreditlash stavkalariga, tijorat banklarining mijozlarga taklif qilayotgan kredit va depozit stavkalariga ta'sir qiladi. Asosiy stavka orqali Markaziy bank iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi yoki cheklashi mumkin.

Misol uchun, 2022-yil fevral oyida inflyatsion bosim kuchaygani sababli Markaziy bank asosiy stavkani 14 foizdan 17 foizgacha oshirdi. Biroq, iqtisodiy vaziyat barqarorlashgani sari 2024-yil boshiga kelib bu stavka yana 14 foiz darajasiga tushirildi.

Bu qarorlar kredit bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Masalan, tijorat banklaridagi iste'mol kreditlari bo'yicha o'rtacha stavkalar 2023-yilda 26-28% atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 24% gacha pasaydi.

Majburiy zaxira normalari. Tijorat banklari Markaziy bankda o'z mijozlarining depozitlaridan ma'lum bir qismini zaxira sifatida saqlab turishi lozim. Bu - pul massasini nazorat qilish, likvidlikni boshqarish vositasi hisoblanadi. Hozirgi kunda:

- milliy valyutadagi majburiy zaxira normasi - 1%,
- chet el valyutasidagi depozitlar uchun esa - 10% etib belgilangan.

Mazkur vosita orqali Markaziy bank pul bozorida ortiqcha likvidlikni kamaytiradi yoki kerak bo'lsa, ko'paytiradi.

Ochiq bozor operatsiyalari. Markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarini sotish yoki sotib olish orqali bozordagi pul miqdorini boshqaradi. Masalan, agar inflyatsiya kuchayib ketsa, bank obligatsiyalarni sotadi va natijada bozordagi pul miqdori kamayadi. Aksincha, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish kerak bo'lsa, obligatsiyalarni sotib olib, bozorga qo'shimcha pul kiritiladi.

So'nggi yillarda bu vosita faol qo'llanilmoqda. 2023-yilda Markaziy bank tomonidan 9,3 trillion so'mlik qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan deyarli 2 barobar ko'pdir.

Valyuta bozoridagi ishtirok. Markaziy bank o'zining intervensiyalari (valyuta sotib olish yoki sotish) orqali milliy valyuta - so'mning kursini haddan tashqari tebranishlardan himoya qiladi. Misol uchun, 2022-yilda dunyo bozorlaridagi noaniqliklar tufayli Markaziy



bank bir necha bor dollarga nisbatan so'm kursining barqarorligini ta'minlash maqsadida valyuta intervensiyalarini amalga oshirdi.

2023-yilda Markaziy bank tomonidan 2,3 milliard AQSh dollari miqdorida intervensiya qilingan. Bu orqali so'mning kursi nisbatan barqaror saqlanib qoldi - yil davomida atigi 9,7% ga qadrsizlandi, bu esa mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan pastroq ko'rsatkichdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilgan pul-kredit siyosati nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki oddiy fuqarolarning kundalik hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini bir nechta asosiy yo'nalishlar orqali ko'rib chiqish mumkin:

Avvalgi yillarda, ayniqsa 2017-yildan keyin, narxlar keskin oshgan davrlar bo'ldi. Bunga valyuta bozorining erkinlashtirilishi, import tovarlariga bo'lgan talabning ortishi va tarif o'zgarishlari sabab bo'ldi. Masalan:

- 2018-yilda inflyatsiya - 14,3%,
- 2019-yilda - 15,2%,
- 2023-yil yakuniga kelib - 8,8% ga tushdi.

Bu - pul-kredit siyosatining muvozanatli olib borilganining natijasidir. Foiz stavkalarining inflyatsiyaga qarab o'zgartirilishi, pul massasining nazorat ostida ushlab turilishi va banklararo bozorning faoliyati bu barqarorlikka xizmat qildi.

Markaziy bank kredit siyosatini muvofiqlashtirgan holda, tijorat banklari orqali real sektorni qo'llab-quvvatladi. Bu, ayniqsa, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun muhim bo'ldi.

Statistikaga ko'ra:

- 2017-yilda iqtisodiyotdagi jami kreditlar hajmi - 80 trillion so'm,
- 2020-yilda - 230 trillion so'm,
- 2023-yil oxirida esa - 430 trillion so'mdan oshdi.

Kreditlarning asosiy qismi sanoat (34%), savdo va xizmat ko'rsatish (26%), qurilish (15%) va qishloq xo'jaligi (12%) sohalariga yo'naltirildi.



Bu holat ichki talabni oshirdi, yangi ish o‘rinlari yaratildi va YaIMning barqaror o‘shishiga xizmat qildi. Masalan, 2023-yil yakunida O‘zbekiston iqtisodiyoti 6,0% ga o‘tdi, bu Markaziy Osiyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir.

Valyuta siyosati ham pul-kredit siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, so‘m kursining haddan tashqari tebranishlarini oldini olishda Markaziy bankning intervensiyalari muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda so‘m qadrsizlanayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirganda ancha yumshoq kechmoqda:

- 2021-yilda dollarga nisbatan qadrsizlanish - 10,1%,
- 2023-yilda - 9,7%,
- 2024-yil prognozi - 8,5% atrofida.

Bu ko‘rsatkichlar Markaziy bankning valuta bozorida ehtiyotkor siyosat yuritayotganidan dalolat beradi.

Pul-kredit siyosatining yutuqlaridan biri - aholining moliyaviy tizimga ishonchining oshganidir. Buni quyidagi raqamlar orqali ko‘rish mumkin:

- 2020-yilda yuridik va jismoniy shaxslar omonatlari jami - 56 trillion so‘m,
- 2023-yil yakuniga kelib - 145 trillion so‘mdan oshdi.

Bu esa pulning “yostiq tagida” emas, iqtisodiyotda aylanayotganini bildiradi. Omonat foiz stavkalarining real inflyatsiyadan yuqori bo‘lishi esa aholining tejashga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda.

Umuman olganda, pul-kredit siyosatining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri ko‘p qirrali va ijobiy bo‘lib, barqaror inflyatsiya, kredit bozorining faollashuvi, milliy valyutaning nisbatan barqarorligi va bank tizimiga bo‘lgan ishonchning oshishi bilan namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning pul-kredit siyosati so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, bu sohada hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar hamon mavjud. Iqtisodiyotning tobora ochilayotgan sharoitida pul-kredit siyosatini yanada samarali amalga oshirish uchun ayrim to‘siqlarni bartaraf etish muhim sanaladi.



1. Inflyatsiyaning tashqi omillarga bog'liqligi: mahalliy inflyatsiya ko'plab hollarda tashqi bozorlardagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Masalan, energiya resurslari va import oziq-ovqat narxlarining global o'zgarishi ichki bozorga tezda ta'sir qilmoqda. Bu esa pul-kredit siyosatining mustaqil samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
2. Kredit resurslarining notekis taqsimlanishi: kreditlarning asosiy qismi yirik sanoat loyihalariga yo'naltirilayotgani kichik va o'rta biznes (KOB) vakillarining moliyaviy resurslardan foydalanishini cheklamoqda. KOB subyektlari kredit olishda hali ham yuqori stavka va garov masalalari bilan duch kelmoqda.
3. Pul-kredit siyosatining aholi daromadlariga bevosita ta'siri cheklangan: monetar choralar odatda makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi, biroq ular bevosita aholi daromadlari va iste'mol imkoniyatlariga sekinroq ta'sir ko'rsatadi. Natijada aholining aksariyati moliyaviy tizimdagi ijobiy o'zgarishlarni tez sezmaydi.
4. Bank tizimining raqamli transformatsiyasi sust borayotgan hududlar mavjud: ayrim viloyatlarda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, masofaviy bank servislaridan foydalanish darajasi past bo'lib qolmoqda. Bu pul-kredit siyosatining ommaviy ta'sirini cheklaydi.

Yuqoridagi muammolarga qaramay, O'zbekistonning pul-kredit siyosati oldida katta imkoniyatlar mavjud. Quyidagi yo'nalishlar istiqbolda asosiy e'tibor markazida bo'lishi kutilmoqda:

1. Inflyatsiya nishonini aniq belgilash va bozorga signal berish mexanizmlarini kuchaytirish: markaziy bank 2025-yilgacha inflyatsiyani 5% atrofida barqarorlashtirishni rejalashtirgan. Bu natijaga erishish uchun pul massasining mo'tadil o'sishini ta'minlash, foiz stavkalarini ehtiyotkorlik bilan boshqarish va aholiga ochiq-oshkora iqtisodiy prognozlar berish muhimdir.
2. Kichik va o'rta biznesga mo'ljallangan kredit dasturlarini kengaytirish: tadbirkorlik subyektlariga yengil shartlarda kreditlar taqdim etish orqali iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ularni qo'llab-quvvatlash mumkin. Shu maqsadda subsidiya, kafillik va imtiyozli garov siyosatini kuchaytirish lozim.



3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish va ommaviy raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish: aholi orasida moliyaviy bilimlarni kengaytirish orqali bank tizimiga bo'lgan ishonch va faol ishtirokni oshirish mumkin. Ayniqsa, yoshlarga, ayollar va qishloq aholisi uchun raqamli bank xizmatlarini qulay qilish maqsadga muvofiqdir.

4. Tashqi iqtisodiy xavflarga nisbatan “tampon zonalar”ni shakllantirish: global bozorlarning tebranishiga nisbatan ichki iqtisodiy immunitetni mustahkamlash kerak. Buning uchun valyuta zaxiralarini oshirish, oltin-valyuta intervensiyalarini optimallashtirish va eksport-import muvozanatini ushlab turish zarur.

Xulosa o'rnida: Pul-kredit siyosati - bu nafaqat raqamlar bilan ishlovchi tizim, balki har bir fuqaroning hayot sifati, biznes yuritish muhiti va mamlakat taraqqiyotining tayanchi hamdir. O'zbekiston bu yo'lda muhim qadamlar tashlagan, biroq barqaror o'sish uchun doimiy islohotlar va qat'iy monetar strategiyalar muhim bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy hisobotlari va statistik ma'lumotlari (Inflyatsiya darajasi, asosiy foiz stavkalari, kredit hajmi va omonatlar bo'yicha rasmiy statistikalar)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining pul-kredit siyosati va iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari (2017-yildan boshlab valyuta siyosatini liberallashtirish, inflyatsion targetlash modeliga o'tish bo'yicha hujjatlar)
3. Rashidov A.R., Ikramova D.T. (2022). “O'zbekistonda pul-kredit tizimi va uni modernizatsiyalash yo'llari” Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 13-son, 2022-yil 20-noyabr.
4. Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadv B. “Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'rni va ahamiyati” Science and Innovation International Scientific Journal, 2022, 1-jild, 6-son.
5. Abdullaev A., Gafurov X. “Iqtisodiy siyosatning rivojlanishida fiskal va pul-kredit siyosati” Kokand University Herald, maqola.